



## NOMODDIY AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

---

*Maxkamov Elyor Mo‘minovich*

*Magistr, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi*

*Fiskal institut. Tel: +998500765552*

*E-mail: elyorbekmahkamov1988@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob jarayonini tashkil etish sharoitida takomillashtirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Korxonalarda nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nomoddiy aktivlar, nomoddiy aktivlarni baholash, kirim qilish, hisobdan chiqarish, eskirish hisoblash, tannarx, xarajatlar, fiskal barqarorlik, soliq bazasi, moliyaviy hisobot ma’lumotlari.

**Аннотация:** В данной научной статье описаны актуальные вопросы учета нематериальных активов и его совершенствования в условиях организации учетного процесса на основе международных стандартов финансовой отчетности. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию учета нематериальных активов на предприятиях.

**Ключевые слова:** нематериальные активы, оценка нематериальных активов, ввод, списание, расчет амортизации, себестоимость, расходы, финансовая устойчивость, налоговая база, данные финансовой отчетности.

**Abstract:** This scientific article describes the current issues of accounting of intangible assets and its improvement in the conditions of organization of the accounting process based on international standards of financial reporting. Proposals and recommendations on improving the accounting of intangible assets in enterprises are given.

**Key words:** intangible assets, valuation of intangible assets, input, write-off, depreciation calculation, cost, expenses, fiscal sustainability, tax base, financial statement information.

Nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan hisoblanadi, chunki nomoddiy aktivlar zamonaviy korxonalarining qiymati va operatsion samaradorligida tobora muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda



korxonalar aktivlarining umumiy qiymatida nomoddiy aktivlar ulushini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu ularni baholash, amortizatsiya qilish va hisobga olish masalalarini dolzarbligini ifodalaydi. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish ularning qiymatini va kompaniya uchun potensial iqtisodiy foydani aniqroq aks ettirish imkonini beradigan yangi usul va yondashuvlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu aktivlarning foydali xizmat muddatini aniqlash, amortizatsiya usulini tanlash va faol bozorda sotilmaydigan aktivlarni qayta baholash bilan bog'liq vazifalardan iboratdir. Shuningdek, buxgalteriya hisobi standartlari xalqaro amaliyotga mos kelishini ta'minlash ham muhim, bu esa moliyaviy hisobotning shaffofligini va investorlar ishonchini oshirishga yordam beradi. Qonunchilik va buxgalteriya hisobi standartlaridagi o'zgarishlar bilan kompaniyalar hisob siyosati va buxgalteriya hisobini tashkil etish tartiblarini MHXS talablariga moslashtirishi kerak. Bu o'z navbatida nomoddiy aktivlar tasnifini qayta ko'rib chiqish, ularni tan olish va o'lchash mezonlarini aniqlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarda oshkor etilishini takomillashtirish kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi korxonaning moliyaviy holati va rivojlanish istiqbollari haqida aniqroq va to'liq tasavvurni shakllantirishga qaratilgan harakatlardir.

Nomoddiy aktiv turlari asta sekinlik bilan ko'payib borayotgani, hisob jarayoniga yangidan-yangi atamalar va tushunchalarning kirib kelishini ta'minlamoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, bugungi zamonaviy hisob jarayonida korxonalar moliyaviy holati va raqobatbardoshligini baholashda nomoddiy aktivlarning ahamiyati bir necha o'n barobar ortdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tez suratlarda shakllanayotgan mazkur holat esa korxonalar hisob tizimida mavjud nomoddiy aktivlar turlari to'g'risida moliyaviy hisobotlarda foydalanuvchilar talabini qanoatlantiruvchi batafsil hisob ma'lumotlarining bo'lishini talab etadi.

Jahon iqtisodiyotining o'zaro integratsiyalashuvi va hisob jarayonlarining transformatsiyalash davrida dunyo mamlakatlarida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi hamda qo'llaniladigan iqtisodiy atamalarning bir xil ma'noga ega bo'lishi birinchi galda hal etilishi talab etiladigan muammolardan biri sanaladi.

Nomoddiy aktivlarni identifikatsiyalash, turlarga ajratib tasniflash, baholash, tan olish, amortizatsiyalash hamda hisobdan chiqarish jarayonlarini tashkil etish va yuritishda joriy paytda ham dunyo olimlari o'rtasida bir qancha munozarali masalalar bor.

Ilm fanning taraqqiy etishi, korxonaga iqtisodiy naf keltirishi mumkin bo'lgan nomoddiy aktivlar hamda intellektual mulk turlarining ortishi ularni



идентификация, оценка и бухгалтерия в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии.

В нашей стране инновационная модель развития, интеллектуальные ресурсы, научные исследования и практика-конструкторские работы, в частности, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии.

Сегодняшняя страна нуждается в развитии и модернизации, в частности, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии.

Предприятия нуждаются в модернизации, в частности, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии.

Экономическое развитие нуждается в развитии, в частности, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии, в отношении собственности, в частности, в бухгалтерии.



hisobotlaridan foydalanuvchilarga to'liq, to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berish ekanligini doimo yodda tutishimiz zarur.

Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi obyekt sifatidagi konsepsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim.

Nomoddiy aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga taalluqli bo'lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari ham paydo bo'lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxonada faoliyatida uzoq muddat ishtirok etishadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Korxonalarda shunday xo'jalik mablag'lari mavjudki, ulardan ham uzoq vaqt foydalanish natijasida korxonada xo'jalik faoliyati davomiyligi, rivoji ta'minlanadi. Bunday xo'jalik mablag'i nomoddiy aktivlardir.

Nomoddiy aktivlarni o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu aktivlardan foydalanish muddati bir yildan yuqori.
2. Korxonada foyda olishiga mo'ljallangan.

Ba'zi bir nomoddiy aktivlardan tashqari bir me'yorda amortizatsiya hisoblanishi tavsiya etiladi. Nomoddiy aktivlar o'zining bajaradigan vazifasi va boshqa asosiy xususiyatlari bilan asosiy vositalarga o'xshaydi, shuning uchun ham uzoq muddatli aktivlar guruhida joylashgan, lekin jismoniy jihatga hamda ko'rinishga ega emas.

Nomoddiy aktivlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- korxonada faoliyatida faol foydalaniladi, sarmoya sifatida saqlanmasligi va sotish uchun olinmasligi kerak;
- o'z xizmat muddati davomida foyda keltirishi lozim;
- hamma vaqt moddiy mohiyatga ega bo'lavermaydi.



Xalqaro amaliyotda nomoddiy aktivlar biznesdagi muvaffaqiyatning muhim kaliti sifatida e'tirof etilmoqda. Xo'sh, nomoddiy aktivlarning o'zi nima? Ushbu aktivlar tarkibiga nimalar kiritilishi kerak?

Ushbu savollarga adabiyotlarda yaxlit javob topish qiyin. Nomoddiy aktivlar to'g'risida so'z yuritib, ayrim mutaxassislar "aktivlar" so'zining o'zini qo'llamaslikni afzal ko'radilar. Ayrim iqtisodchilar hisobga olish va boshqarishga molik bo'lgan hamda ayni paytda ishbilarmonlik nayranglaridan farqlanadigan, korxonaga kelgusida daromad olib kelish ehtimolligini o'zida saqlovchi korxonalar imkoniyatlarini "Nomoddiy unsur"lar ya'ni, "Intangible assets" deb ataydilar. Va bu atama bugungi kunda buxgalteriya sohasidagi barcha xalqaro me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda "Intangible assets" atamasining o'rniga shunchalik "intangibles" deb qo'llanilish kuzatilmoqda. Bizningcha "intangibles" va "Intangible assets" tushunchalarini o'zaro bir birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida qarash lozim, chunki oddiy "aktivlar" (assets) deganda qandaydir resurslarni yoki ishlab chiqarish vositalari tushuniladi.

Yuqorida berib o'tilgan izohlarga tayangan holda nomoddiy aktivlarga quyidagicha to'ldirilgan ta'rif berish mumkin. Nomoddiy aktiv – bu korxonaga kelgusida iqtisodiy naf kelishini ta'minlaydigan, hisobga olish maqsadida korxonalar moliyaviy natijalarining shakllanishida ahamiyatli ta'sirga ega qiymatlarni o'zida saqlaydigan, moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan hamda korxonaga mulk va egalik huquqlari doirasida tegishli bo'lgan hisob obyektidir.

So'ngi yillarda korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasi o'sib, ularning roli keskin oshdi. Resurslarning tanqisligi ulardan samarali foydalanish yoki ularni o'rinbosarlarini izlab topishni taqozo etmoqda. Bunda esa ilm fan taraqqiyotini roli juda muhimdir. Shu sababli korxonalar uchun nomoddiy aktivlar hisobini yuritish hamda uni takomillashtirish muammosi dolzarb masalaga aylandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Intellectual Property and Information Wealth: Copyright and related rights. Greenwood Publishing Group. p. 346. ISBN 978-0-275-98883-8.
2. Levine David: Michele Boldrin (2008-09-07). Against intellectual monopoly(PDF). Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-87928-6.
3. Акбаралиевич, Э.А., & Махамадзиковна, Г.М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода



На Мсфо. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 8-16.

4. Эрматов Акмалжон Акбаралиевич, & Муратов Азиз Акбарович. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 158–165.
5. Richard T. De George, “Intellectual Property Rights” in The Oxford Handbook of Business Ethics, by George G. Brenkert and Tom L. Beauchamp, vol. 1. Is ted. (England: Oxford University Press) 417.
6. Sveiby K. E. Intellectual Capital and Knowledge Management. 1998. -213 p.
7. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac, Financial and managerial accounting, 12e. Cengage Learning, 2012. ISBN:1133447813